




**“КИМЁ ТЕХНОЛОГИЯ, КИМЁ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ  
САНОАТИДАГИ МУАММОЛАР ҲАМДА УЛАРНИ БАРТАРАФ  
ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ” МАВЗУСИДАГИ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН**

## **МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**



11. Kates M. Techniques of Lipidology: Isolation, Analysis and Identification of Lipids, Elsevier, New York, 1972, 464 c.

**KRAXMAL PLYONKASINING ERUVCHANLIGIGA VA SORBSION  
XUSUSIYATLARIGA KARBOKSIMETILSELLYULOZANING TA'SIRI**

**Sh.Sh.Shadieva, Sh.B.Ostonovna, M.R.Amonov**  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kraxmal asosida olingan polimer pylonkaning eruvchanligiga hamda sorbsion xususiyatlari modifikator sifatiga tanlangan suvda eruvchan karboksimetilsellyulozaning ta'siri o'rganilgan. Turli konsentratsiyadagi KMS va kraxmal saqlagan polimer pylonkasining suvni biriktirish va eruvchanlik xususiyati aniqlangan.

**Tayanch so'zlar:** Ohor, polimer, KMS, akril emulsiyasi, kalava ip, pylonka, muslahkamlik, sorbsiya, eruvchanlik.

Paxta tolasi asosida kalava ipdan mato olish jarayonida to'quv dastgohida kalava ip katta ishqalanish va o'zgaruvchan kuch ta'sir ostida cho'ziladi. Bu esa ipning bo'shashiga va ba'zan uzilishiga olib keladi.

To'qimachilik sanoatida ipning uzilishini kamaytirish ishqalanishga chidamlilagini oshirish maqsadida kalava ip ohor bilan ishlanadi. Ohorlangan ip talab darajasidagi texnologik xususiyatlarga ega bo'lishi uchun ohor ma'lum fizik-mexanik ko'rsatkichlarga javob berishi kerak. Birinchidan, ohor nafaqat kalava ipning yuzasini bir tekis qoplashi, balki qisman iplar ichiga singishi kerak. Buning uchun u bir jinsli, yopishkoq bo'lishi, ma'lum qovushqoqlikka ega bo'lishi va qurishda barqaror pylonka hosil qilishi kerak.

Suvning turli polimerlar bilan o'zaro ta'siri muammosiga qiziqish qator sabablar bilan ifodalangan. Bulardan asosiysi suvning polimerlar bilan o'zaro ta'siri to'g'risidagi ma'lumotning amaliy ahamiyatidadir. Ma'lumki, suvning sorbsiyasi va diffuziyasi to'g'risidagi ma'lumotlar ushu materiallarning ma'lum namlikda qanday bo'lishini oldindan aytish, ularning ishga yaroqlilagini baholashda ham, materiallarni tanlashda ham zarurdir.

Polimer - suv tizimiga qiziqishni ifodalovchi boshqa sabab suv molekulalari va polimer polyar guruhlari o'rtasidagi vodorodli bog'lanishlar hisobiga hosil bo'luvchi spesifik o'zaro ta'sirlar bo'lib, ularning natijasida bo'kish, eruvchanlik kabi jarayonlar aniqlanadi [1].

Modifikatsiyalangan kraxmal ohorlovchi modda sifatida qo'llanishi sababli, bu moddalarning suv bilan o'zaro ta'siri sorbsion xususiyatlar, bo'kish jarayonlari va ohorlovchi materiallarning eruvchanligini o'rganish nuqtai-nazaridan qiziqish uyg'otadi.

1-jadvalda 80% namlikda KMSning turli miqdordagi 6%-li kraxmal pylonkalarida namlikning sorbsiyalanish kinetikasi keltirilgan.

1-jadval  
**Namlikning sorbsiyalanish kinetikasi**

Modifikator-KMS miqdori, %	Turli vaqt, soatlarda sorbsiyalangan suv miqdori, %						
	0,25	0,5	1,0	2,0	20,0	24,0	48,0
0	0,49	1,84	3,58	3,54	10,19	11,50	11,74
0,1	0,80	1,89	3,66	3,80	10,41	11,80	12,08
0,2	0,98	2,10	3,79	4,20	11,10	12,08	12,35
0,3	1,12	2,25	3,90	4,42	11,32	12,30	12,48

## **Kimyo texnologiya, kimyo va oziq-ovqat sanoatidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari**

0,4	1,26	2,36	4,04	4,56	11,46	12,56	12,66
0,5	1,40	2,47	4,18	4,70	11,61	13,06	13,07
0,6	1,52	2,55	4,30	4,90	11,72	13,10	13,15

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, KMS bilan modifi-katsiyalangan kraxmal plyonkalarining sorbiqion xususiyatlarining ma’lum darajada oshishiga olib keladi. Bu ohor moddalar uchun juda muhim xususiyatdir, chunki ularni saqlashda keyingi ishlov berishni osonlashtirish uchun ma’lum namlikni saqlab kolishi zarurdir.

Shu maqsadda ohorlovchi moddalarga gigroskopik modda gliçerin qo’shiladi. KMS bilan kraxmalni kalava iplarni ohorlashda qo’llash natijasida nam yutuvchanlik xususiyatini maxsus preparatlarsiz (gliserinsiz) oshishiga olib keldi.

Kraxmal plyonkalari sorbiqion xususiyatlarning oshuvi KMS bilan modifikatsiyalangan kraxmal plyonkalarining bo‘kishi va eruvchanligiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kraxmal tabiiy holatda sovuq suvda erimaydi; u 25-30% suvni yutadi va unda bo‘kadi. Yuqori haroratlarda miçellyar tuzilma qismlarida suv molekulalarini saqlab turuvchi vodorodli bog‘lanishlar parchalanadi. Suvning dissoçiyalangan molekulalari kraxmalning bo‘shashgan qismlariga singib kraxmal molekulalari bo‘ylab ko‘p sonli gidroksid guruhlarni asta-sekin gidratlashga qodir [2].

Kraxmal yelimalarining bo‘kish jarayonini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki (2-jadval), kraxmal KMS bilan modifikatsiyalanganda uning suvni biriktirish xususiyatini oshishiga olib keladi. 1 g kraxmal uchun birikkan suv miqdori 3-4 %ga oshadi. Polimer atrofidagi bo‘shliqning suv bilan to‘yinishi gidratlanish hisobiga butun tizim bo‘kishining oshishiga, chegaralangan bo‘kishning chegaralanmaganiga o‘tishiga olib keladi, buning natijasida polimerning eruvchanlik xususiyati ham oshadi, ya’ni

2-jadval

### **Turli miqdordagi KMS va kraxmalning suvni biriktirish va eruvchanlik xususiyati**

Eritma tarkibi	1g kraxmal shimgan suv miqdori,g	Eruvchanlik, %	Suvni biriktirish xususiyati, %
Kraxmal	33,10	28,00	45,00
Kraxmal+0,1% KMS	35,65	43,00	59,80
Kraxmal+0,2% KMS	35,80	51,20	70,13
Kraxmal+0,3% KMS	36,11	56,28	76,91
Kraxmal+0,4% KMS	36,42	59,55	79,67
Kraxmal+0,5% KMS	37,15	63,43	82,21
Kraxmal+0,6% KMS	37,86	68,14	84,37

kraxmalni KMS bilan modifikatsiyalashda bo‘kish xususiyatining oshishini ular o‘rtasida mustahkam kompleksning hosil bo‘lishi bilan tushuntirish mumkin.

Shunday qilib, kraxmal plyonkalarning sorbiqion xususiyatlari ularga KMS kiritish bilan gidratlangan qobig‘i hosil bo‘ladi, natijada plyonkalarning bo‘kishi va eruvchanligi oshadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mazhidov A.A., Ismatova R.A., Amonov M.R. Complete use of water-soluble polymer composition // LAP LAMBERT Academic Publishing. – 2020. -168 p.
2. Ismatova R.A., Norov I.I., Amonov M.R., Ibragimova F.B. Sizing polymer compositions on the base of starch and polyvinyl alcohol // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. -2019. – N. 11-12. –Pp. 41-44.

3. Исматова Р.А., Ибрагимова Ф.Б., Амонов М.Р., Разработка нового состава для шлихтования хлопчатобумажной пряжи // Universum: технические науки: научный журнал. 2019. – № 11 (68). Chast 3. –S. 82-85.

**SUVDA ERUVCHAN POLIMERLAR ASOSIDA OHORLANGAN KALAVA IPLARNING  
FIZIK –MEXANIK XOSSALARI**

**Sh.Sh.Shadieva, M.I.Raxmonov, Q.A.Ravshanov**  
Buxoro davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eritma qovushqoqligining modifikatsiyalangan kraxmal tarkibiga qarab o'zgarishi ohorlangan kalava iplarning fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xususiyatlarining ohor komponentlari kimyoviy tabiatini va konsentratsiyasiga bog'liqligini o'rganish akril emulsiyasi va Na-KMS bilan modifikatsiyalangan kraxmal ohorning yelimlovchi va pylonka hosil qiluvchi komponentlariga qo'yildigan talablar javob berishi isbotlangan.

**Tayanch so'zlar:** Kompozitsiya, yelimlash, polimer, akril emulsiyasi, kalava ip, qovushqoqlik.

Kalava iplarni ohorlash maqsadida bugungi kunda kraxmal, natriy metasilikat va xloramin qo'llaniladi. To'qimachilikda kalava iplarni ohorlash uchun taklif etiluvchi sintetik polimer moddalar ba'zi texnologik kamchiliklarga ega: qimmatligi va kraxmal singari universal xususiyatlarga ega emaslidir. Shu sababli sintetik polimerlar bilan modifikatsiyalangan kraxmaldan ohorlovchi moddalarning yangi turlarini izlash va ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat mahsuloti bo'lgan kraxmal sarfini kamaytirish hamda kalava iplarni ohorlash uchun qo'llanayotgan ohor materiallari tannarxini arzonlashtirish maqsadida biz kraxmalni AE va Na-KMS bilan modifikatsiyalab, kalava iplarni ohorlash uchun yangi tarkibni taklif etdik [1,2].

Ohorlovchi moddalar qovushqoqligi ularning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u optimal qiymat doirasida bo'lishi kerak, unda ip yuzasida ipga mustahkamlik va elastiklik beruvchi himoya pylonka hosil bo'lishi ta'minlanadi. Tarkibi turli konsentratsiyalarda bo'lgan eritma qovushqoqligining o'zgarishi to'g'risidagi natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

**Eritma qovushqoqligining modifikatsiyalangan kraxmal tarkibiga qarab o'zgarishi**  
(T=298K, paxta yog'i 0,03 %).

Guruch kraxmali, %	AE, %	Turli konsentratsiyada(%)Na-KMS eritmasi			
		0,1	0,2	0,3	0,4
3	0,4	1,10	1,17	1,26	1,40
	0,5	1,19	1,28	1,44	1,70
	0,6	1,36	1,51	1,65	2,05
	0,7	1,75	1,93	2,25	2,61
4	0,4	1,21	1,33	1,44	1,62
	0,5	1,34	1,50	1,72	1,95
	0,6	1,55	1,68	1,93	2,20
	0,7	1,78	2,13	2,41	2,71
5	0,4	1,32	1,41	1,55	1,72
	0,5	1,44	1,64	1,91	2,11

**Kimyo texnologiya, kimyo va oziq-ovqat sanoatidagi muammolar hamda  
ularni bartaraf etish yo'llari**

	0,6 0,7	1,71 2,01	1,82 2,23	2,13 2,64	2,35 2,89
--	------------	--------------	--------------	--------------	--------------

Tarkibida 5-7%-li kraxmal, 0,2-0,6 %-li KMS va 0,3- 0,6%-li AE bo'lgan moddalar qovushqoqligining bog'liqligini o'rganish shuni ko'rsatdiki, barcha o'rganilayotgan eritmalar talab darajasidagi qovushqoqlikka ega. Bunda Na-KMS konçentratsiyasining 0,2%dan 0,6%gacha o'zgarishi kraxmal yelimirining struktura - mexanik xususiyatlari sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Ohorlash jarayoni kalava iplarning kuch ta'sirida uzilishiga ta'sir etadi, ya'ni ohorlangan kalava ip mustahkamligi yumshoq kalava ipga nisbatan ortadi. Shuning uchun izlanishlar jarayonida ohorlangan va ohorlanmagan kalava iplarning kuch ta'sirida uzilishi o'rtasidagi farqlar aniqlandi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Olingan natijalardan ko'rinish turibdiki (2-jadval), ohorlangan kalava iplarning uzilishiga nafaqat kraxmal va KMS miqdori, balki ma'lum darajada AE miqdori ham bog'liq. Masalan, kalava ipning kuch ta'sirida uzilishi 4%-kraxmal, KMS-0,3% va 0,5%-AE bo'lganda 391sN ni tashkil etsa, kraxmal konçentratsiyasi 7%gacha, Na-KMS 0,05%gacha oshirilganda kuch ta'sirida uzilishi 398 sNgacha oshadi.

2.-jadval

**Modifikatsiyalangan kraxmal bilan ohorlangan kalava iplarning  
fizik- mexanik ko'rsatkichlari (paxta yog'i 0,03 %)**

Modifikatsiyalangan kraxmal tarkibi ,%			pH	Kuch ta'sirida uzilish, R,sN	Cho'zi- luvchan-lik, Ye, %	Elimla- nish, K, %
Kraxmal	AE	Na-KMS				
3	0,4	0,2	7,2	347	20,63	3,01
	0,5	0,2	7,0	380	22,68	3,52
	0,6	0,2	6,9	395	23,85	4,28
4	0,4	0,3	7,3	375	22,68	4,49
	0,5	0,3	7,0	391	23,93	4,77
	0,6	0,3	6,8	414	24,15	5,61
5	0,4	0,4	7,7	387	23,21	4,91
	0,5	0,4	7,3	398	25,28	5,94
	0,6	0,4	6,8	416	26,40	7,09

Shunday qilib, ohorlangan kalava iplarning fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xususiyatlarining ohor komponentlari kimyoviy tabiatini va konçentratsiyasiga bog'liqligini o'rganish AE va Na-KMS bilan modifikatsiyalangan kraxmal ohorning yelimlovchi va pylonka hosil qiluvchi komponentlariga qo'yildigan talablarni qoniqtiradi. Shuning uchun ohorning yaxshi reologik xususiyatlariga hamda kalava ipning fizik-mexanik xususiyatlariga ega tarkib quyidagi komponentlarni tashkil qiladi: kraxmal 4%, AE 0,5% va 0,2% Na-KMS.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- Ибрагимова Ф.Б., Исматова Р.А., Амонов М.Р. Изучение влияния компонентов на смываемость композиции // Композиционные материалы: Научно-технический и производственный журнал. 2020. -№ 2. –С. 11-14.

**Kimyo texnologiya, kimyo va oziq-ovqat sanoatidagi muammolar hamda  
ularni bartaraf etish yo'llari**

---

<b>Z.H.Qurbanov, N.R.Nurmamatov.</b> Respublikamizdagi plastikligi kam tuproqlar va organik chiqindilar asosida engil to'ldiruvchilar olish imkoniyatlari.....	468
<b>Л.Б.Кабулова, М.Ж.Султанов, Г.Б.Избасарова.</b> Влияние пущолановых добавок на свойства портландцементов.....	471
<b>Р.М.Назирова, Б.Х.Кучаров, Б.С.Собиров.</b> Одно стадийное разложение фосфорита сернокислым раствором сульфата аммония.....	472
<b>X.M.Qanoatov, Z.K.Voqqosov.</b> Qora mol go'ngi, fosforit xom ashyosi va mikroorganizmlar tutgan biopreparat asosida bioorganik mineral o'g'it olish.....	476
<b>Н.К.Усманова, Н.К.Юлдашева, С.Д.Гусакова, Э.Х.Ботиров.</b> Липиды melilotus officinalis.....	479
<b>Sh.Sh.Shadieva, Sh.B.Ostonovna, M.R.Amonov.</b> Kraxmal plyonkasining eruvchanligiga va sorbsion xususiyatlari karboksimetilsellyulozaning ta'siri.....	482
<b>Sh.Sh.Shadieva, M.I.Raxmonov, Q.A.Ravshanov.</b> Suvda eruvchan polimerlar asosida ohorlangan kalava iplarning fizik –mexanik xossalari.....	484
<b>M.A.Mirzajonov, A.I.Xamidov, Sh.Sh.Qo'ziboev.</b> Sanoat chiqindilari asosida olingan gipsli bog'lovchilarni qotishini boshqarish.....	486
<b>Ф.Э.Умиров, О.Б.Дормешкин, С.Х.Кенжаева.</b> Получения хлората калия на основе техногенного отхода содового производства и хлорида калия.....	489
<b>N.N.Abdug'aniyev, G.S.Abdug'anieva.</b> Sanoat korxonalarida oqava suvlarni ifloshlanishini oldini olish usullari.....	491
<b>A.A.Bazarov.</b> Buxoro-Xiva neftegaz hududi mezo-kaynazoy yotqiziqlarida simobning genezisi.....	493
<b>K.O.Aripova.</b> Markaziy Qizilqum fosforitlaridan dikalsiyfosfat olish texnologiyasini tadqiq qilish.....	495
<b>K.O.Aripova, A.L.Giyasidinov.</b> Nitrat fosfat suspenziyalarni turli xil cho'qtiruvchi moddalar bilan neytrallash jarayonlarini o'rganish.....	497
<b>D.R.Siddiqov, X.M.Bobaqulov, S.Z.Nishanbayev.</b> Geranium saxatile, geranium collinum ва geranium charlesii o'simlik turlarining ikkilamchi metabolitlari.....	499
<b>N.S.Baxriddinov, Sh.Mamadaliev, D.Djuraeva, B.Murodullaev.</b> Ohak ishlab chiqarishda zararli omillarni bartaraf etishning zamonaviy texnologiyasi.....	501
<b>A.L.Giyasidinov, N.I.Abdurahimova, B.E.Sultonov.</b> Qizilqum fosforitlaridan ishlab chiqarilgan fosforli o'g'it suspenziyalarining reologik xossalari.....	502
<b>R.M.Ro'zibayeva, N.I.Mukarramov, A.R.Xurramov, X.M.Bobaqulov.</b> Lindelofia macrostyla m.pop o'simligidan ajratilgan di(2etilgeksil)ftalat.....	504
<b>Y.M.Xolmirzayev.</b> Sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish.....	505
<b>D.Y.Yuldashev, M.X.Azimova, I.Y.Haydarov, R.Q.Abidova.</b> Ishqalanishga bardosh materiallar tarkibida bazalt tolalaridan foydalanish yo'llari.....	508
<b>А.А.Абдурахимов, М.Э.Мавланова, Б.А.Мухаммадгалиев.</b> Влияние температуры прессования на свойства стружечных плит.....	510
<b>Ф.Н.Хуррамова, А.Д.Матчанов.</b> Доклинические исследования супрамолекулярных комплексов глицеризиновой кислоты.....	513
<b>Z.K.Babaev, F.D.Kenjaev, F.R.Sabirova.</b> Silikagel chiqindisini qayta ishlash imkoniyatlari.....	516
<b>Sh.Sh.Ortiqov, Z.J.Jumayeva.</b> Sintetik polimerli kompozitsiyalar asosida ohorlangan kalava iplarning fizik-mexanik xossalarni o'rganish.....	518